

TARIXIY HAQIQATNING BADIY TALQINI

Bobojanov Alisher

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Luqmon Bo'rixonning "Imom Moturidiy" romani poetikasi tahlil qilingan. Romanda tarixiy haqiqatning badiiy haqiqatga aylanishi, yozuvchi badiiy niyati asosida obraz yaratish, xususan, Abu Mansur Moturidiyning badiiy siymosini aks ettirish mahorati o'rganilgan.

Tayanch so'zlar: tarixiy haqiqat, badiiy to'qima, badiiy niyat, obraz, Imom Moturidiy, portret.

Tarixiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirishning muhim qonuniyatlaridan biri bu obraz yaratish mahoratidir. Tarixiy materiallardan badiiy asar yaratish avvalo ijodiy niyat va estetik ideal talab qiladi. Yozuvchi niyatlangan mavzuni yoki g'oyani obrazga ko'chirish, badiiy libos kiydirish uchun o'sha niyatni estetik ideal bilan omuxtalashtirmog'i lozim. Belinskiyning fikricha "Har bir badiiy asarning mohiyati shundaki, undagi hodisa mavjud imkoniyatdan mavjud haqiqatga uzviy ravishda bog'lanib boradi. Ko'z ilg'amas mayda bir dona kabi san'atkorning ko'ngliga bir fikr tushadi-yu ana shu barakatli va serhosil zamindan, gurkirab chiqib, barq urib o'sa boshlaydi-da, go'zalligi va hayoti mukammal bir shakl va obrazlarga kiradi"³².

Tarixiy faktlar badiiy asar yaratishda asos vazifasini o'tasa, muallif ijodiy niyati estetik ideal bilan hamohanglikda hodisaga badiiy to'n kiydiradi. Tarix zarvaraqlariga muxrlangan, hayotiy voqealardan tug'iladigan g'oya ijodkor ko'ngil prizmasidan o'tib, mantiqiy butunlikni va badiiy barkamollikni vujudga keltiradi. Yozuvchi Luqmon Bo'rixonning "Imom Moturidiy" romanida olis X asr boshlaridagi ko'hna Samarqandning siyosiy-ijtimoiy, ma'rifiy hayotidan ayrim lavhalarni qalamga olinadi. Ulug' ajdodlarimizdan biri, mashhur alloma Abu Mansur Moturidiyning badiiy siymosini aks ettirishga urinadi. Muallif mahorati shunda ko'rinadiki tarixiy shaxs tasvirini chizishda badiiy to'qima va real hayot orasidagi devorni o'quvchi ilg'amas darjada ko'zga ko'rinmas qiladi. Va shu bilan birga tarixiy haqiqatni gavdalantirishda haqiqat mantig'iga ham qarshi bormaydi.

Muallif bosh qahramon siymosini, insonlar bilan munosabatini bosqichma bosqich tasvirlab borar ekan qahramon go'yo ko'z o'ngimizda ulg'ayib kamolotga yetib boradi. Badiiylik bilan mantiqiylikni bir joyga jipslashtirgan holda har bitta qahramonni shaxs sifatida ko'z oldimizda "katta qiladi". Shu bois kitobxon o'zi tarbiyalagan insonlardan har birining o'ziga xos xarakterlarini kuzatishdan, o'zaro kurashini tomosha qilishdan, taqdiridagi qilmish qidirmishlariga guvoh bo'lishdan ozorlanmaydi.

Romanda qahramonlar portreti hodisalar dinamikasi davomida o'qtin-o'qtin tasvirlanadi. "Yozuvchining portret yaratishida portretning statik va dinamik turi

³² O'zbek adabiy tanqidi. Antologiya. Turon-iqbol, T.:2001, 324-sahifa

farqlanadi. Statik portret yaratishda qahramonlar yuz tuzilishi batafsil chizilsa, dinamik portret yaratishda obrazlar qiyofasi voqealar davomida, diologlarda tasvirlab boriladi. Qahramon portreti tasviri uning suratini ko'rsatish uchun emas, balki ruhiy dunyosini anglash uchun ham ahamiyatlidir³³. Moturidiy asari qahramonlari esa dinamik usuldan foydalangan holda tasvirlangan. Muallif hech bir qahramonini boshdan oyoq to'lig'icha ta'riflamaydi, hodisalar, to'qnashuvlar, ruhiyat tasviri yoki xotiralar davomida turli xil personajlar tilidan chizib boradi. Asar bosh qahramoni Moturidiy portreti ham asta-sekinlik bilan voqealar rivoji keskinlashgani sari yetuklashib boraveradi. Goh muallif tilidan gohida Moturidiy raqiblari yoki ixlosmandlari tilidan.

Ilk ta'rifni muallifning o'zi beradi. Yozuvchi Moturidiy qiyofasini, borlig'ini go'yo o'z ko'zi bilan qarab gavdalantiradi. Bunga iqror bo'lmoq uchun quyidagi parchani o'qish kifoya: *"Quyosh Qorabo'rk qoyasi qiyasidan go'yo qimtinibgina mo'raladi. Uning iliq nurlari olacha to'nga o'rangan, zarang tayoqqa xayolchan suyangan bir tutamgina et-suyakka xush yoqdi. Boshidagi gumbazsimon qalpog'ini manglayidan andak surib qosh-ko'zlarini silab qo'ydi. Qator dov-daraxtlar ortidagi yalanglikka yoyilib ketgan o'n-o'n besh chog'li qo'y-qo'zisi tomon yurindi"*³⁴. Mazkur parchada yozuvchi go'yo chetda turib, Moturidiy qiyofasiga nazar tashlaydi va uning jonli portretini chizadi. Kitobxon qahramon tashqi qiyofasidan uning Moturidiy ekanligini anglab yetolmaydi. Shu bois ham yozuvchi nazarini qahramonning ichki olamiga, ruhiy dunyosiga ko'chiradi va undagi asosiy fazilatga sezilar-sezilmas urg'u berib qo'yadi: *"Ey, rahmli va mehribon Parvardigor! Hikimatingning, himmatingning chek-chegarasi yo'q. Abu Mansur qulingning qadrini nomidan ham, tomidan ham baland qilding. Ul g'aribingga ato etilgan ne'matlar shukronasini qilmoqqa imkon ber. Nogoh jonini olma!"*³⁵.

"Abu Mansur qulingning qadrini nomidan ham, tomidan ham baland qilding" satrlarining o'ziyoq zukko kitobxon uchun Moturidiyning nochor va abgor ahvolda hayot kechirganini, dunyo lazzatlaridan voz kechgan umrini ilm-ma'rifat uchun bag'ishlagan inson ekani anglatadi. Shundan keyin qahramonning batafsil portretini chizishga urunadi: *"Uning asl yoshini bilish qiyin: ellikning etagidan tutgan bo'lsa-da, ozg'in, chayir jussasi, yakkam-duk kam oq oralagan siyraktob soch-soqoli, tetik, ildam xatti-harakatlari yigitlarga xos, quyuq qoshlar ostidan o'ychan, sinchkov boquvchi ko'zlar, qirra burun, bo'rtiq yanoqlar chehrasiga xushsuratlik, xushfe'llik baxsh etib turadi"*³⁶.

Moturidiy haqidagi ilk ta'rifni muallifning o'zi berdi ammo bu tasvir o'quvchiga Moturidiy xarakteri haqida hukm chiqarish uchun yetarli emas. Shu bois muallif obyektiv yondashishni ma'qul ko'radi. Yozuvchi Moturidiy obrazini asta-sekinlik bila boshqa personajlar nutqida tasvirlab boradi. Asar boshidanoq Moturidiy haqida keskin fikr

³³ Suvonov Z. Tog'ay Murod nasrida obrazlar poetikasi. Filol. fan. b-cha fals. d-ri. (PhD) ... dis. – Toshkent: 2019. – 163 b

³⁴ Luqmon Bo'rixon. Imom Moturidiy. - Toshkent, Adabiyot. 2022, 18-bet

³⁵ O'sha asar 19-bet

³⁶ Luqmon Bo'rixon. Imom Moturidiy. - Toshkent, Adabiyot. 2022, 20-bet

bildirmasdan, xulosani voqealar oqimiga va qahramonlari inon-ixtiyoriga topshirib qo'yadi.

Muallif Moturidiy haqidagi ikkinchi ta'rifni Idris Shomiy tilidan beradi va tarif orqali Idris Shoimiyning Moturidiyga munosabatini yaqqol ko'rsatib qo'yadi. *"Bir zum o'ylar og'ushida qolgan hokim boshini ko'tardi.*

– Imom Abu Mansur Moturidiy qanday odam o'zi?

– so'radi sir boy bermay.

*– Yoshi ellikdin oshgan. Ammo hanuz tetik, sergak kishi. Tili achchiq, yuz-ko'zing demay so'ylaydi. Birovlar ustidan kinoya qilishni xush ko'radi. Tuzuk, tiniq gap olish mushkul. Har bir so'zi go'yo tilsim"*³⁷.

Muallif Moturidiy haq gapni aytishdan also chekinmasligi, adolatparvar va zalvorli fikrlar egasi ekanligi haqidagi ta'rifni aynan raqiblari tilidan beryapti. Bu esa Moturidiy siymosiga bo'lgan hurmatni, kitobxon qiziqishini yana ham orttirishga xizmat qiladi. Muallif asarning aynan shu joyida tabiat tasviriga ham urg'u beradi: *"Ufq tomon oqqan oftob shundoqqina deraza orti dan go'yo mo'ralab turardi. Og'ir darpardalar uning zarrin ziyosini to'sishga, parchalashga urinadi. Singan, sochilgan yog'dular esa serhasham peshtoqning har joy-har joyida balqib xosxonaga oqlik, soflik baxsh etardi"*³⁸. Idris Shomiy Moturidiyni qanchalik yomonoltiqlik qilib, hokim nazdiduda yer bilan bir qilishga tirishmasin alaloqibat Moturidiy quyosh yanglig' ilm ziyosini, haqiqat nurlarini tarqatishdan to'xtamaydi, quyoshdek porloq insonni yuziga loy chaplash sen kabi nonko'rlar qo'lidan kelmaydi demoqchidek go'yo.

Moturidiy obrazini chizishdagi keying ta'rif yana muallifni o'z tilidan beriladi: *"Imom Abu Mansur otasidan, qishloq muallimidan ilk saboq olgan kezlarini hamisha sog'inch bilan eslaydi. O'sha paytlar yosh Muhammadning qalbi, ong-shuuri bilishga, anglashga tashna edi. Ustozlariga tinchlik bermas edi. Keyinchalik Samarqanddagi mashhur Juz joniya madrasasida tahsil oldi. Harislik, chanqoqlik bilan o'qidi. Har bir dars, har bir saboq ong-shuurida, yuragida, tafakkurida yangidan-yangi dunyo ochardi"*³⁹. Haqiqatdan ham Moturidiy umrini kalom ilmi uchun bag'shiyda etgan buyuk allomadir. "Kalom ilmi o'rta asrlarda falsafiy-diniy fikrlarni, dinning nazariy asoslarini o'rganish, islom aqidalariga e'tiqod etish haqidagi bilimlarini ifodalab, biron bir dinga mansub bo'lgan shaxs uchun majburiy hisoblangan, har qanday sharoitda muhokama yuritmasdan e'tiqod qilinishi lozim bo'lgan diniy talablar majmuyiga nisbatan aqliy mulohaza yurgazish jarayonida maxsus bilimlar tizimi jamlamasi sifatida vujudga keldi. Kalom – "silm ul-kalom" atamasi keng ma'noda o'rta asrlar musulmon adabiyotida diniy-falsafiy mavzularda (shu jumladan, nasroniylik va yahudiylik dinlarida ham) erkin fikr yuritishlarga nisbatan qo'llanilgan, tor ma'noda esa akidaparastlik, ya'ni dinda obro'-e'tiborli hisoblangan shaxslar -- payg'ambar, sahobalarga taqlid yo'li bilan emas, balki,

³⁷ O'sha asar 24-bet

³⁸ Luqmon Bo'rixon. Imom Moturidiy. - Toshkent, Adabiyot. 2022, 26-bet

³⁹ O'sha asar 27-bet

Qur'on va sunniy ta'limotni aqliy idrokka mos talqin etish, tafakkurga suyanib ish yuritishga nisbatan ishlatilgan"⁴⁰.

Moturidiyning fikru-zikri hamisha kitoblarda bo'lgan, atrof bilan, jamiyat bilan also ishi bo'lmagan. yotsa-tursa yodlaganlarini takrorlar, o'rgangan masalalariga hamisha hayotdan misollar izlab yurgan. Moturidiyning buyuk alloma bo'lib yeishishida tahsil yillari katta o'rin tutgani muallif tomonidan bot-bot urg'u beriladi. Chunki allomaning faqatgina qunt bilan ilm olish va insoniy fazilatlarni e'zozlash orqali insonlar qalbidan joy olganiga, aynan shu jihatlari sabab tarix zarvaraqlariga muhrlanganiga dallillab ketishga urinadi.

Obraz poetikasi ijodkorning o'z obrazini tushunishi, tasavvur qilishi, unga aniq badiiy vazifa yuklashi, atrof-olamga munosabatini shakllantirishi, fe'l-atvoriga mos badiiy nutq bilan ta'minlashi, obrazning shaxsiy mantig'idangina kelib chiqib harakatlantirishini anglash maqsadga muvofiqdir. L.Bo'rixon Moturidiy obrazida aynan shu jihatlarga e'tibor qaratadi. Romandagi badiiy obrazlar borliqning shunchaki nusxasi emas. Ular ijodkorning kashfiyoti, ijodiy mehnati mahsulidir. Tarix haqiqatiga mos kelish-kelmasligidan qat'i nazar, o'quvchi tasavvurini boyitadi, ko'nglini bezovtalantiradi, tafakkurini yangiliklar bilan yuksaltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Luqmon Bo'rixon. Imom Moturidiy. - Toshkent, Adabiyot. 2022 ✓
2. Ziyodov Sh.Al Moturudiy hayoti va merosi. A.Qodiriy.T. 2000
3. Suvonov Z. Tog'ay Murod nasrida obrazlar poetikasi. Filol. fan. b-cha fals. d-ri. (PhD) ... dis. – Toshkent: 2019. – 163 b.

⁴⁰ Зиёдов Ш.Ал Мотурудий ҳаёти ва мероси. А.Қодирий.Т. 2000 5 6